

OILA PSIXOLOGIYASI DOIRASIDA GENDER STEREOTIPLARINING SHAKLLANISHI VA ULARNING FARZAND TARBIYASIGA TA’SIRI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-395-397>

Komilov Abdulloh Kamoliddin o‘g‘li

Aniq va ijtimoiy fanlar unversteti 1 kurs magistranti

Jabborov Xazrat Xusenovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,

Amaliy fanlar fakulteti,

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası professori,

Psixologiya fanlari doktori (DSc)

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada oila psixologiyasi doirasida gender stereotiplarining shakllanishi va ularning farzand tarbiyasi hamda ijtimoiy ongga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilinadi. Yani gender stereotiplari shakllanishida ota ona ro‘li ananaviy shakllanadigan stereotiplarni ijobiy salbiy taraflari. Tadqiqotning asosiy maqsadi — oilaviy muhitda genderga oid doimiy shakllanib kelgan qarashlarning bolalar psixologik rivojiga qanday ta’sir etishini ochib berishdan iborat. Bularni gender stereotiplarining shaxs rivojini cheklovchi jihatlarni psixologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Maqolada tenglikka asoslangan sog‘lom tarbiya qanday bo‘lishi tarbiya ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi gender stereotiplarini oila psixologiyasi va ijtimoiy ong o‘zaro bog‘liqligida yaxlit bitta xolda tahlil qilishdan iborat.

Kalit so‘zlar: *oilal psixologiyasi, gender stereotiplari, farzand tarbiyasi, ijtimoiy ong, shaxs rivoji*

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье анализируется влияние гендерных стереотипов в контексте психологии семьи на воспитание детей и формирование общественного сознания. Цель исследования заключается в выявлении психологического воздействия традиционных гендерных установок, формируемых в семейной среде. Автор рассматривает гендерные стереотипы как фактор, ограничивающий личностное развитие ребенка. В статье обосновывается значение воспитания, основанного на принципах равенства. Научная новизна исследования состоит в комплексном анализе взаимосвязи семейной психологии, гендерных стереотипов и общественного сознания.

Ключевые слова: *психология семьи, гендерные стереотипы, воспитание детей, общественное сознание, развитие личности.*

ABSTRACT

This scientific article examines the influence of gender stereotypes within the framework of family psychology on child upbringing and the formation of social consciousness. The main objective of the study is to identify the psychological impact of traditional gender norms formed in the family environment. The author analyzes gender stereotypes as a factor limiting personal development. The article emphasizes the importance of equality-based parenting. The scientific novelty lies in a comprehensive analysis of the interrelation between family psychology, gender stereotypes, and social consciousness.

Keywords: *family psychology, gender stereotypes, child upbringing, social consciousness, personal development.*

Zamonaviy jamiyatimizda oila shaxs shakllanishining asosiy ijtimoiy instituti hisoblanadi. Aynan oilada bolaning dastlabki psixologik qarashlari, ijtimoiy rollari va qadriyatlari shakllanadi. Ushbu jarayonda gender stereotiplari muhim o‘rin egallaydi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, genderga asoslangan an’anaviy yondashuvlar ko‘plab jamiyatlarda hanuzgacha farzand tarbiyasida ustuvor bo‘lib qolmoqda. ko‘plab oilalarda o‘g‘il va qiz bolalarga nisbatan turlicha ijtimoiy va psixologik talablar qo‘yilmoqda [1.15].

Tadqiqotning obyekti — oila psixologiyasi tizimi. Tadqiqotning predmeti — oiladagi gender stereotiplari va ularning farzand tarbiyasiga ta’siri. Tadqiqotning maqsadi — gender stereotiplarining bolalar psixologik rivoji va ijtimoiy ong shakllanishiga ta’sirini ilmiy tahlil qilish.

Tadqiqotning vazifalari: gender stereotiplari mohiyatini ochib berish, aynan ananaviy tarbiya tizimi foydali yoki zararli aynan zararni keltirib chiaruvchi yondashuvlarni aniqlash ularning tarbiyadagi ko‘rinishlarini aniqlash va muqobil psixologik yondashuvlarni taklif etishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Gender va oila psixologiyasi masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. S. Bem gender sxemasi nazariyasida jamiyatda shakllangan gender me’yorlarining shaxs ongiga singdirilishini asoslab bergan [2.41]. I. S. Kon o‘z tadqiqotlarida jinsiy ijtimoiylashuv jarayonida oilaning hal qiluvchi rolini ta’kidlaydi [3.28].

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham oila va tarbiya masalalari psixologik jihatdan o‘rganilgan bo‘lsa-da, ko‘pchilik ishlarda gender stereotiplari masalasi alohida tizimli tahlil qilinmagan. Ushbu maqolaning o‘ziga xosligi shundaki, unda gender stereotiplari oila psixologiyasi va ijtimoiy ong o‘zaro bog‘liqligida kompleks yondashuv asosida tahlil etiladi.

Oila psixologiyasi va gender stereotiplari. Oila psixologiyasi oiladagi shaxslararo munosabatlar, emotsional muhit va tarbiya mexanizmlarini o‘rganadi. Gender stereotiplari esa aynan shu muhitda bolaga bevosita yoki bilvosita singdiriladi. Ota-onalarning o‘g‘il va qiz bolalarga nisbatan turlicha talablar qo‘yishi stereotiplarning asosiy manbai hisoblanadi. Yani o‘g‘il boladan kuchlilikni qiz boladan itoatkorlikni kutish stereotiplarning asosiy ko‘rinishidir [4.56].

Gender stereotiplarining farzand tarbiyasiga ta’siri ijobiy salbiy taraflari.

Gender stereotiplari bolalarning o‘ziga bahosi, hissiy holati va ijtimoiy faolligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘g‘il bolalarda hissiyotlarni bostirish, qiz bolalarda esa passivlikni shakllantirish holatlari ko‘p kuzatiladi. Bu esa kelajakda shaxsiy va ijtimoiy moslashuv muammolarini keltirib chiqaradi [5.73].

Gender stereotiplarining ijobiy tomonlari shundan iboratki, unda ijtimoiy tartib va barqarorlik nuqtai nazaridan jamiyatda rollar aniq bo‘lgani uchun odamlar o‘zidan nima kutilayotganini tushunadi.

Oila va mehnat taqsimotida barqarorlikni ta’minlaydi. Bolalar o‘z jinsiga xos rol va xatti-harakatlarni tezroq o‘zlashtiradi. Shaxsiy identitet (erkaklik/ayollik) shakllanishiga yordam beradi. Milliy va diniy qadriyatlarning avloddan-avlodga o‘tishini ta’minlaydi.

Jamiyatda umumiy axloqiy me'yorlarni mustahkamlaydi. Oila ichida vazifalarning aniq taqsimlanishi nizolarni kamaytirishi mumkin. Masalan, parvarish va ta'minot rollarining ajratilishi. Gender stereotiplarining salbiy tomonlari esa, shaxsiy rivojlanishni cheklashi, Inson o'z qiziqishi va qobiliyatiga mos bo'lmagan rolga majbur bo'lishi mumkin. Masalan, “erkak yig'lamaydi”, “ayol rahbar bo'lolmaydi”. Ta'lim, mehnat bozori va boshqaruvda imkoniyatlar teng bo'lmasligiga olib keladi. Ayollarning iqtisodiy qaramligi, erkaklarga ortiqcha bosim yuklanadi. Stereotipga mos kelmaslik ayb, uyat yoki qo'rquv hissini kuchaytiradi. Depressiya, xavotir va past o'zini baholashga sabab bo'lishi mumkin.

Rollar mos kelmaganda tushunmovchilik va nizolar kuchayadi. Erkakning hissiy yaqinlikdan qochishi, ayolning o'zini qurbon qilishi holatlari namoyon bo'ladi. “Erkak hukmron bo'lishi kerak” kabi stereotiplar oilaviy zo'ravonlikni normalizatsiya qilishi mumkin.

Gender stereotiplar to'liq inkor qilinishi emas, balki moslashuvchan va tanqidiy qayta ko'rib chiqilishi lozim. Zamonaviy jamiyatda:

Rollar biologik jinsga emas, shaxsiy qobiliyat va kelishuvga asoslanishi,

Farzand tarbiyasida erkin tanlov va teng imkoniyatlar berilishi muhim.

Ijtimoiy ong shakllanishida oilaning roli

Oilada shakllangan stereotipik qarashlar jamiyat miqyosida ijtimoiy ongning tarkibiy qismiga aylanadi. Natijada gender tengsizliklari mustahkamlanadi va avloddan-avlodga o'tadi. Tenglikka asoslangan tarbiya esa sog'lom ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa.Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oila psixologiyasi doirasida gender stereotiplari farzand tarbiyasi va ijtimoiy ong shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Stereotiplardan xoli, individual yondashuvga asoslangan tarbiya modeli shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi va jamiyat barqarorligiga xizmat qiladi.Stereotiplardan ijobiy yoki salbiy tasir ko'rsatishini tarbiya jarayonida keltirib chiqaruvchi natijasi oqibatlari nomoyon bo'ladi stereotiplar doimiy foyda yoki doimiy zarar bo'lmaydi aynan qo'llanish uslubi foydali yoki zararli qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Andreeva G. M. Ijtimoiy psixologiya. — Moskva, 2010.
2. Bem S. L. Gender Schema Theory. — New York, 1981.
3. Кон И. С. Психология пола. — Москва, 2009.
4. Bandura A. Social Learning Theory. — Englewood Cliffs, 1977.
5. Giddens A. Sociology. — Cambridge, 2013.